O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2026.31.01.Fil.45.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

SOXIBOVA O‘G‘ILOY NURALIYEVNA

INGLIZ ADABIYOTINING NEOROMANTIZM KONTEKSTIDA ROBERT LUIS STIVENSON IJODI

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UDK: 821.111.09-31

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on philological sciences

Soxibova O‘g‘iloy Nuraliyevna
Ingliz adabiyotining neoromantizm kontekstida Robert Luis Stivenson ijodi……..3

Сохибова Угилой Нуралиевна
Творчество Роберта Луиса Стивенсона в контексте неоромантизма в английской литературе……... 29

Sokhibova Ugiloy Nuralievna
The works of Robert Louis Stevenson in the Context of Neoromanticism in English Literature ……...59

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works…….....63

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2026.31.01.Fil.45.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

SOXIBOVA O‘G‘ILOY NURALIYEVNA

INGLIZ ADABIYOTINING NEOROMANTIZM KONTEKSTIDA ROBERT LUIS STIVENSON IJODI

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Fil5271 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida tayyorlangan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (xulosa)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.uzswlu.uz) hamda “Ziyonet” axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Adilova Shaxnoza Raximovna** filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Rasmiy taqrizchilar:	**Umarova Maxliyo Yunusovna** filologiya fanlari doktori, professor
	Nasriddinov Dilshod A’zamqulovich filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot	**Nizomiy Ganjaviy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2026.31.01.Fil.45.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “_____” _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100138 , Toshkent sh., Kichik Halqa Yo‘li ko‘chasi, G-9a mavzesi, 21-a uy. Tel.: (99871) 230-12-91 ; e-mail: uzdjtu@uzswlu.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan) (100138 , Toshkent sh., Kichik Halqa Yo‘li ko‘chasi, G-9a mavzesi, 21-a uy. Tel.: (99871) 230-12-91; e-mail: uzdjtu@uzswlu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “_____” _____ da tarqatildi.
(2026-yil “_____” _____ dagi _____ -raqamli reyestr bayonnomasi).

A.A.Nasirov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

X.B.Samigova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

D.M.Teshabayeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotida XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida bir necha adabiy oqimlar ta’sirida neoromantizm o‘ziga xos estetik yo‘nalish sifatida shakllandi. Mazkur oqim romantizmning davomchisi sifatida sarguzasht, ma’nan yuksalish, idealizm va qahramonlik motivlarini yangi ijtimoiy-falsafiy sharoitda qayta talqin etadi. Ingliz adabiyotida neoromantizm an’anaviy realizm va naturalizmga nisbatan alternativ yo‘nalish sifatida yuzaga kelib, insonning ichki ruhiyati, estetik idealari va orzu-intilishlari tasviriga yo‘naltirildi. Mazkur oqimdagi asosiy estetik tamoyillar singari, Robert Luis Stivenson ijodining leytmotivi sifatida real hayot tasviridan ko‘ra qalbning botiniy qatlamlarini ochish muhim ahamiyat kasb etadi. Ijodkor “Treasure Island”, “Kidnapped”, “The Black Arrow” va “Catriona” romanlarida ifodalangan neoromantik ruhiyat manzaralari, tarixiy ong, sarguzash qahramonlik kabi motivlar G‘arb adabiyotida alohida adabiy maktabni vu keltirgan.

Dunyo adabiyotshunosligida bugungi kunda neoromantizmning tarixi, ilmiy-nazariy asoslari, xususan, Stivenson ijodi misolida uning badiiyatini o‘rganish zarurati tobora ortib bormoqda. Neoromantizm ruhiyat tasvirining badiiy ifodasini modernizmning eksperimental shakllari bilan uyg‘unlashtirdi. Tashqi va ichki olam simvolizm orqali yanada chuqurlashdi. Mazkur oqim XIX asr romantizmi va XX asr boshidagi estetik yo‘nalishlar orasida ko‘prik vazifasini bajardi. His-tuyg‘ular va ruhiy jarayonlar tasviri, sirli va fantastik motivlar, she’riyat va musiqaning uzviyligi, klassik romantizm motivlarini zamonaviy kontekstga moslashtirilishi neoromantizmga xos xususiyatlar hisoblanadi.

O‘zbek adabiyotiga Robert Luis Stivenson ijodining bilvosita va tipologik ta’siri asosan adabiy an’analar hamda neoromantik uslubda namoyon bo‘ladi. Stivenson asarlaridagi jasorat, halollik va sinov orqali shaxsni kamol toptirish g‘oyalari, obraz yaratish mahorati o‘zbek adabiyotida syujet qurilishi va neoromantik qahramon tipining shakllanishiga xizmat qilgan. Prezidentimizning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida yosh avlodni kitobxonlikka targ‘ib etish, ma’nan yuksak qilib tarbiyalash boradida jiddiy vazifalar belgilangan: “Bugun sizlarga, sizlar orqali butun el-yurtimizga murojaat qilib aytmoqchiman: bugun tarixning o‘zi, hayotning o‘zi zimmamizga buyuk bir mas’uliyatni yuklamoqda. Jonajon Vatanimiz bugun yangicha siyosiy-huquqiy, ijtimoiy, ma’naviy munosabatlar asosida yashab, mehnat qilayotgan, mustaqil fikrlaydigan, ozod va erkin insonlar diyoriga aylanmoqda[1]”. Mazkur vazifalarning ijrosini ta’minlash maqsadida G‘arb adabiyotshunosligida keng o‘rganilayotgan adabiy oqimlar, jumladan, neoromantizmning ingliz adabiyotidagi shakllanish jarayonlari, uning estetik tamoyillari, falsafiy mohiyati, ayniqsa, Robert Luis Stivenson ijodida ifodalanishi texnokratlashgan dunyoda badiiy tafakkur muammolarini o‘rganishda zamonaviy yondashuvlarni talab etadi.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2025-yil 26-dekabrdagi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi // https://president.uz/oz/lists/view/8834

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-maydagi 376-son “Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o‘zbek tiliga hamda o‘zbek adabiyoti durdonalarini chet tillariga tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli qator me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ingliz neoromantizmi va Robert Luis Stivenson ijodi masalalari jahon adabiyotshunosligida turli nazariy hamda metodologik yondashuvlar asosida tadqiq qilingan. I.Berlin, G.Brandes, T.Eagleton, R.Wellek, A.Warren, N.Frye, L.Trilling kabi G‘arb olimlarining romantizm va neoromantizmga oid fundamental tadqiqotlari ushbu yo‘nalishning nazariy asosini tashkil etadi[2]. Ular romantik va neoromantik tafakkurning badiiy-falsafiy mohiyatini, tarixiy tadrijiy rivoji va uzviyligini hamda adabiy jarayondagi o‘zgarishlarni asoslab bergan.

I.Bell, C.Harman, L.Dryden, J.Calder, W.Gray, R.Hunter, J.Reid, D.Riser kabi tadqiqotchilar Robert Luis Stivensonning sarguzasht va tarixiy asarlarini biografik, psixologik, struktural va psixoanalitik jihatdan chuqur tahlil qilganlar[3].

[2] Berlin I. The Roots of Romanticism. – Princeton: Princeton University Press, 1999. – P. 98-104; Brandes G. Main Currents in Nineteenth Century Literature. Vol. VI. – London: William Heinemann, 1906. – P. 210-214; Eagleton T. Literary Theory: An Introduction. – Oxford: Basil Blackwell, 1983. – P. 20-24, 76-79; Wellek R., Warren A. Theory of Literature. – New York: Harcourt, Brace & World, 1949. – P. 139-142; Frye N. Anatomy of Criticism. – Princeton: Princeton University Press, 1957. – P. 136-138, 187; Trilling L. The Liberal Imagination: Essays on Literature and Society. – New York: Viking Press, 1950. – P. 121-123.

[3] Bell I. Dreams of Exile: Robert Louis Stevenson – A Biography. – London: HarperCollins, 1992. – P. 44-48, 112-116; Harman C. Robert Louis Stevenson: A Biography. – London: HarperCollins, 2005. – P. 203-205; Dryden L. The Modern Gothic and Literary Doubles: Stevenson, Wilde and Wells. – Palgrave Macmillan, 2003. – P. 45-47, 111-113; Calder J. Robert Louis Stevenson: A Critical Study. – Edinburgh: Canongate Classics, 1992. – P. 86-89; Gray W. Romantic Legacy in Modern Literature. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2010. – P. 87-90; Reid J. Robert Louis Stevenson, Science and the Fin de Siècle. – New York: Palgrave Macmillan, 2006. – P. 91-94; Riser D. V. What’s Long about Long John Silver: Anormative Masculinities and Histories in Robert Louis Stevenson’s “Treasure Island”. – Morgantown: West Virginia University, 2023.

“Treasure Island”, “Kidnapped”, “Catriona”, “The Master of Ballantrae” romanlari sarguzasht adabiyotining yangi bosqichi sifatida baholanib, ularda qahramonlik mavzusi, tarixiy makon masalalari yetakchi badiiy omil sifatida ko‘rsatilgan[4].

Rus adabiyotshunosligida neoromantizm muammolari bir qator tadqiqotlarda ilmiy jihatdan yoritilgan. Jumladan, V.M.Tolmachyov neoromantizmni XIX-XX asrlarda taraqqiy etgan badiiy-estetik kategoriya sifatida baholab, neoromantik tafakkurning falsafiy, poetik va tipologik xususiyatlarini tizimli yondashuv asosida tahlil etgan[5]. N.T.Paxsaryan neoromantizmni XX asr badiiy ongining muhim bosqichi sifatida izohlab, romantizm, realizm va modernizm bilan genetik hamda tipologik munosabatlarini ilmiy jihatdan asoslagan[6]. V.A.Lukov romantik va neoromantik an’analarning uzviyligini ochib bergan[7]. E.Y.Fesenko XX asr madaniy-falsafiy hodisasi sifatida talqin etib, uning estetik tizimi va madaniy funksiyalarini kompleks tarzda tahlil qilgan[8].

Mazkur tadqiqotlar neoromantizmning umumiy nazariy muammolarini yoritishga qaratilgan bo‘lsa-da, ularda Robert Luis Stivenson ijodidagi axloqiy qahramon konsepsiyasi, vijdon, halollik va shaxsiy tanlov masalalari alohida monografik obyekt sifatida maxsus va tizimli tarzda tahlil qilinmagan. Ayniqsa, “Treasure Island”, “Kidnapped”, “Catriona”, romanlarida axloqiy qahramon modelining neoromantik kontekstdagi falsafiy-estetik mohiyati mustaqil dissertatsion tadqiqot darajasida o‘rganilmagan. Shu jihatdan mazkur dissertatsiya ushbu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan bo‘lib, mavzuning dolzarbligi va ilmiy yangiligini belgilaydi.

O‘zbek adabiyotshunosligida jahon adabiy jarayonlari, xususan romantizm va modernizm muammolari M.Xolbekov, Q.Yo‘ldoshev, H.Boltaboyev, D.Quronov, U.Hamdamov, D.Xatamova, D.Hajiyeva kabi olimlarning tadqiqotlarida qisman yoritilgan[9]. Mazkur ilmiy ishlarda ingliz neoromantizmi va Robert Luis Stivenson ijodining aynan neoromantizm kontekstidagi maxsus hamda tizimli monografik talqini yetarlicha o‘rganilmagan. Shu bois ingliz adabiyotida neoromantizmning shakllanishi va Robert Luis Stivenson ijodining mazkur oqim kontekstidagi badiiy-falsafiy mohiyati, uning sarguzasht va tarixiy romanlarining poetik talqinini

[4] Gray W. Romantic Legacy in Modern Literature. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2010. – P. 88; Hunter R. Stevenson and the Fiction of Adventure. – Cambridge: Cambridge University Press, 2016. – P. 97; Reid J. Robert Louis Stevenson, Science and the Fin de Siècle. – New York: Palgrave Macmillan, 2006. – P. 93.

[5] Толмачёв В. М. О границах символизма // Вестник Православного Свято-Тихоновского гуманитарного университета: Филология. Философия. История, 2004. – № 3.– P. 247-267.

[6] Пахсарьян Н. Т. Зарубежная литература конца XIX – начала XX века. – Москва: Высшая школа, 2001. – С. 9-25; 38-52.

[7] Луков В.А. История литературы. Зарубежная литература от истоков до наших дней. – Москва: Академия, 2003. – С. 388.

[8] Фесенко Э. Я. Теория литературы. – Москва: Академический проект, 2008. – С. 346.

[9] Холбеков М. XX аср модерн адабиёти манзаралари. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2012. – 308 б.; Xolbekov M. Postmodernizm yoxud Umberto Eko ijodi // Sharq yulduzi, 2014. 4-son; Yo‘ldoshev Q. Modernizm: ildiz, mohiyat va belgilar // Yoshlik, 2014. 9-son; Адабиёт энциклопедияси (Атамалар, истилоҳлар, сиймолар, асарлар ва нашрлар). I жилд. Тузувчи: Ҳ.Болтабоев. – Т.: Mumtoz so‘z, 2014. – 680 б.; Адабиёт энциклопедияси. II жилд: Б – Ё. – Т.: Mumtoz so‘z, 2017. – 680 б.; Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 480 b.; Hamdamov U. Jahon adabiyoti: modernizm va postmodernizm. – Toshkent: Akademnashr, 2020 – 288 b.; Xatamova D. Adabiyotshunoslik terminologiyasida identifikatsiya jihatlari. Monografiya. –Toshkent: Fast Support and Result, 2024. – 257 b.; Khajiyeva D. Romanticism in Uzbek Literature // JMEAJournalof Modern Educational Achievements, 2025. Volume 5 // https://scopusacademia.org/

kompleks hamda tizimli tadqiq etish zamonaviy adabiyotshunoslik uchun dolzarblik kasb etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Dissertatsiya O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Angliya va Amerika adabiyotshunosligi tarixi va dolzarb masalalari" yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Robert Luis Stivenson ijodini neoromantizm kontekstida tahlil qilish hamda uning neoromantik poetikasi va qahramon modelining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ingliz adabiyotida neoromantizm oqimining adabiy-estetik asoslarini romantizm, realizm va modernizm bilan uzviylikda tahlil qilish, XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi badiiy jarayondagi ahamiyatini aniqlash;

Viktoriya davri ijtimoiy-siyosiy va madaniy muhitining neoromantizmga ta'sirini badiiy tafakkurning tadrijiy bosqichlari nuqtayi nazaridan asoslash;

"Treasure Island", "Kidnapped", "Catriona", "The Black Arrow" romanlarida sarguzasht syujeti, tarixiy makon, sevgi, kurash, erkinlik, safar, sinov, yolg'izlik, umidsizlik, o'zligini izlash, zulm motivlarini neoromantik poetika asosida ilmiy-estetik tahlilga tortish;

Stivenson asarlarida ma'nan kamol topishga harakat qilayotgan qahramon konsepsiyasining shakllanish tamoyillari va badiiy-psixologik xususiyatlarini nazariy dalillar negizida asoslash;

adib badiiy tafakkurida romantik an'analar va neoromantik yangilanishlar mushtarakligini qiyosiy-tipologik metod asosida aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Robert Luis Stivensonning "Treasure Island", "Kidnapped", "Catriona", "The Black Arrow" romanlari hamda ingliz neoromantizmi doirasida yaratilgan sarguzasht va tarixiy asarlar tanlangan.

Tadqiqotning predmeti Robert Luis Stivenson romanlarida neoromantizm poetikasi, badiiy psixologizm konsepsiyasi, neoromantik qahramon muammolarining badiiy talqini hamda ularning ijodkor uslubi orqali ifodalanish xususiyatlarini tadqiq qilishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, struktural, intertekstual tahlil, tavsiflash hamda umumlashtirish metodlari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quydagilardan iborat:

XIX va XX asrlar boshlarida neoromantizm olamni badiiy idrok qilishning adabiy-estetik o'ziga xos xususiyatlariga ega, romantizm va simvolizmning badiiy an'analarini birlashtirgan adabiy harakat sifatida Yevropa madaniyatining estetik utopiyalari va distopiyalarining yangi romantik sintezlarini shakllantirgani ilmiy asosda dalillangan;

klassik romantizm an'analari tarixiy, ijtimoiy va estetik jihatdan qayta talqin qilingan "Treasure Island", "Kidnapped", "Catriona", "The Black Arrow" romanlarining neoromantik poetikasi, sarguzasht, tarixiylik va falsafiy-axloqiy mavzular, shaxs erki, qahramonlik kabi g'oyalar, estetik ideal muammosi shakl va mazmun kategoriyalari asosida ochib berilgan;

neoromantik yozuvchi Robert Luis Stivensonning sarguzashtlarga boy syujet va romantik ruh hukmron bo‘lgan romanlari misolida ma’nan yuksalishga intilgan qahramon konsepsiyasi, axloqiy dualizm, realistik tafsilotlar va romantik ideal uyg‘unligi kabi neoromantizmning estetik tamoyillari aniqlangan;

neoromantizmning impressionizm, simvolizm va naturalizm tamoyillari bilan uzviyligi, janrlar tizimidagi erkinlik (drama, roman, hikoya, ertak, she’riyatning turli janrlari va boshqalarga murojaat qilish), yangi janrlarni izlash, stilizatsiyaning ustunligi, tush motivi, qahramon ruhiyatidagi evrilishlar neoromantik badiiy model sifatida asoslangan holda Stivenson ijodining keyingi adabiy jarayonlar, xususan, modernizm va ekzistensial tafakkur rivojiga ko‘rsatgan ta’siri isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Robert Luis Stivenson romanlarining neoromantik xususiyatlarini tahlil etish orqali chiqarilgan xulosalar zamonaviy adabiyotshunoslikni turli adabiy oqimlar integratsiyasi bo‘yicha yangi ilmiy-nazariy ma’lumotlar bilan boyitishi, neoromantizm konsepsiyasining jahon adabiyotidagi badiiy ifodasini tizimli asosda yoritishga xizmat qilishi asoslangan;

Stivenson ijodida sarguzasht va tarixiy romanlar poetikasining neoromantik talqini, ma’naviy-estetik ideal hamda qahramonning axloqiy konsepsiyasini tahlil etish imkoniyatlari kengaytirilgan;

adib asarlaridagi vijdon, halollik, burch va mas’uliyat g‘oyalari bugungi kun kitobxonining dunyoqarashi, estetik tafakkurini shakllantirishda hamda jamiyatning ma’naviy-ma’rifiy va axloqiy-estetik mezonlari takomilida muhim ahamiyat kasb etishi ilmiy jihatdan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi obyektga yondashuv va tadqiqot davomida qo‘llanilgan usullarning qo‘yilgan maqsadga muvofiqligi, nazariy asos sifatida xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlarga tayanilgani, tanlangan badiiy asarlarning tadqiqot predmetiga mos kelishi, nazariy qarashlar va xulosalarning amaliyotga tatbiq etilgani, natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, ishda ingliz adabiyotida neoromantizm oqimining shakllanishi, sarguzasht va tarixiy romanlar poetikasi, Robert Luis Stivenson ijodida axloqiy qahramon konsepsiyasi, vijdon, halollik va insoniy burch masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tizimli tarzda yoritildi. Olingan xulosalar jahon adabiyotshunosligida romantizm, neoromantizm va modern adabiy tafakkur o‘rtasidagi aloqadorlik, ma’nan poklanishni maqsad qilgan qahramon muammolarini chuqurroq anglash imkonini beradi hamda ushbu yo‘nalishda olib borilayotgan ilmiy izlanishlarni boyitadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa unda ilgari surilgan ilmiy xulosalardan “Jahon adabiyoti”, “Qiyosiy adabiyotshunoslik”, “Adabiyot nazariyasi”, “Adabiy oqim va yo‘nalishlar”, “Tarixiy roman poetikasi”, “Badiiy asar tahlili” kabi fanlarni o‘qitishda, maxsus kurs va seminar mashg‘ulotlarini tashkil etishda, darslik, o‘quv qo‘llanma va uslubiy majmualar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz adabiyotining neoromantizm kontekstida Robert Luis Stivenson ijodi sifatida talqin qilish natijalari asosida:

XIX va XX asrlar boshlarida neoromantizm olamni badiiy idrok qilishning adabiy-estetik xususiyatlarini o‘ziga xos tarzda namoyon etishi, romantizm va simvolizmning badiiy an’analarini birlashtirgan adabiy harakat sifatida Yevropa madaniyatining estetik utopiyalari hamda distopiyalarining yangi romantik sintezlarini shakllantirishi bo‘yicha ilmiy xulosalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Yoshlar” telekanalining “Yangi Davr”, “Rostini ayting”, “Maxsus reportaj” kabi bir qator ko‘rsatuvlarning ssenariysini yozishda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Yoshlar” telekanalining 2026-yil 4-fevraldagi 14-01-23-son ma’lumotnomasi). Natijada tomoshabinlarning, xususan, yoshlarning badiiy tafakkuri, estetik didi va neoromantik estetik tafakkurga bo‘lgan qiziqishini rivojlantirishga xizmat qilgan;

klassik romantizm an’analari tarixiy, ijtimoiy va estetik jihatdan qayta talqin qilingan “Treasure Island”, “Kidnapped”, “Catriona” romanlarining neoromantik poetikasi, sarguzasht, tarixiylik va falsafiy-axloqiy mavzular, shaxs erki, qahramonlik kabi g‘oyalar, estetik ideal muammosi shakl va mazmun kategoriyalari asosida ochib berilgan ilmiy xulosalardan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Badiiy tarjima kengashining 2025-yil yakunlariga bag‘ishlangan hisobot yig‘ilishi hamda 2025-yil 12-13-iyun kunlari o‘tkazilgan Respublika tarjimonlar forumi ishida foydalanilgan (O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2026-yil 2-fevraldagi 01-03/52-son ma’lumotnomasi). Natijada badiiy tarjima sifatini takomillashtirish, neoromantik asarlarni chuqurroq tahlil qilish hamda tarjimonlarning kasbiy mahoratini oshirish imkonini bergan:

neoromantik yozuvchi Robert Luis Stivensonning sarguzashtlarga boy syujet va romantik ruh hukmron bo‘lgan romanlari misolida ma’nan yuksalishga intilgan qahramon konsepsiyasi, axloqiy dualizm, realistik tafsilotlar va romantik ideal uyg‘unligi kabi neoromantizmning estetik tamoyillari aniqlangani hamda neoromantizmning impressionizm, simvolizm va naturalizm tamoyillari bilan uzviyligi, janrlar tizimidagi erkinlik (drama, roman, hikoya, ertak, she’riyatning turli janrlari va boshqalarga murojaat qilish), yangi janrlarni izlash, stilizatsiyaning ustunligi, tush motivi, qahramon ruhiyatidagi evrilishlar neoromantik badiiy model sifatida asoslangan holda Stivenson ijodining keyingi adabiy jarayonlar, xususan, modernizm va ekzistensial tafakkur rivojiga ko‘rsatgan ta’siri bo‘yicha ilmiy xulosalardan O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida 2023-2025-yillarda bajarilgan IL-27-4722022413-sonli “Qiyosiy adabiyotshunoslik” fanining “Komparativistika” elektron platformasini yaratish mavzusidagi innovatsion loyiha doirasida foydalanilgan (O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2026-yil 7-apreldagi 04-04/2016-son ma’lumotnomasi). Olingan ilmiy xulosalar jahon adabiyotshunosligida romantizm, neoromantizm va modern adabiy tafakkur o‘rtasidagi aloqadorlik, ma’nan poklanishni maqsad qilgan qahramon muammolarini chuqurroq anglashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta, jumladan, 6 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiya hamda qator ilmiy seminarlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 5 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, ishning umumiy hajmi 157 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va ahamiyati asoslab berilgan, uning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan. Ishning Respublika ilm-fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi yoritilgan. Ilmiy yangiligi, tadqiqotning amaliy ahamiyati va nazariy hamda amaliy jihatdan qo'shgan hissasi ko'rsatib o'tilgan. Asosiy natijalar, ularning ilmiy va amaliy qiymati ochib berilgan, xulosalarning joriy etilishi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilmasi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Birinchi bobning birinchi fasli ***"Jahon adabiyotida neoromantizm adabiy oqimining taraqqiyot bosqichlari"*** deb nomlanib, unda neoromantizmning paydo bo'lishi realizm va naturalizmning ratsionalistik, obyektiv va tashqi voqelikni ustuvor qo'yuvchi yondashuvlariga qarshi yuzaga kelgan estetik reaksiya sifatida asoslanadi. XIX asr oxirida Yevropada sanoatlashuv, urbanizatsiya va texnologik taraqqiyotning jadallashuvi natijasida insonning ruhiy olami, individual kechinmalari va estetik ehtiyojlari ikkinchi darajaga tushib qolganligi kuzatiladi. Shu jarayonda adabiyot va san'at insonning ichki dunyosini qayta markazga olib chiqish zaruratini his qildi hamda bu ehtiyoj neoromantizmning shakllanishiga zamin yaratdi. Neoromantik adabiyotning muhim belgilaridan biri qahramon konsepsiyasining yangicha talqinidir. Romantik adabiyotdagi jamiyat bilan ziddiyatda yashovchi yakka qahramon o'rniga botinini anglashga intiluvchi shaxs obrazlari kirib keldi. Natijada sarguzasht motivi ma'naviy izlanish, o'zini anglash va ruhiy poklanish motivlari bilan uzviy bog'landi. Neoromantizm XIX asr oxiri va XX asr boshidagi Yevropa adabiy jarayonida madaniy inqirozga javoban shakllangan badiiy-falsafiy oqim sifatida namoyon bo'lib, modernizmning falsafiy ildizlariga zamin hozirladi. M.V.Tolmachyov neoromantizmning mohiyatini haqida shunday mulohaza yuritgan: *"Neoromantizm – ijtimoiy maydonda naturalizmga qarshi reaksiya sifatida yuzaga kelgan bo'lib, u nafaqat adabiy oqim, balki asrlar almashuvi davrida yuz bergan madaniy siljishning bir qismidir"*[10]. Olimning fikricha, neoromantizm madaniy o'tish davrining belgisi bo'lib, u XX asr boshlaridagi modernizm, simvolizm, dekadentlik va estetizm oqimlari bilan uzviy bog'liq. Demak, neoromantizmning paydo bo'lishi tasodifiy

[10] Толмачёв В.М. Литературная энциклопедия терминов и понятий. – Москва: Интелвак, 2001. – С. 412.

emas, balki madaniy-falsafiy ehtiyojlar natijasidir. Mazkur nuqtayi nazarni E.Fesyenko ham qo‘llab-quvvatlaydi: *“Neoromantizm – XX asr madaniyatidagi o‘ziga xos hodisa bo‘lib, klassik romantizm g‘oyalarining yangi tarixiy sharoitlarda badiiy shakllarda qayta jonlanishidir”*[11]. Tadqiqotchining fikricha, bu oqim XIX asr oxiri adabiyotidagi qahramonning “ruhiy yangilanish” jarayoni ifodasi; u realizm va naturalizmning tashqi tafsilotlarga asoslangan ratsional yondashuviga qarshi turib, insonning ichki dunyosi, orzu va kechinmalarini badiiy markazga olib chiqdi. V.A.Lukov neoromantizmni quyidagicha izohlaydi: *“Neoromantizm – shaxs erki va orzusini, go‘zallik va ma’naviy yetuklikni himoya qiluvchi axloqiy-estetik tizimdir”*[12]. Uning nazarida, neoromantizm ruhiy inqirozga javob tariqasida shakllanib, jamiyatni texnik taraqqiyot va materializm ta’siriga tushib qolmasligi uchun qahramonni tashqi hamda ichki olam bilan uyg‘unlikda tasvirlashga intiladi, aksiologik nuqtayi nazardan modernizmga yaqin turadi.

Terminologik nuqtayi nazardan, neoromantizm atamasi adabiy tahlil va nazariyalar asosida turlicha talqin qilinadi. Ba’zi tadqiqotchilar ushbu atamani tor doirada tushunib, uni XIX asr oxirida rivojlangan sarguzasht yo‘nalishidagi badiiy adabiyot bilan bog‘lashadi. Jumladan, Robert Luis Stivenson, Arthur Conan Doyl singari buyuk yozuvchilar asarlarida neoromantizm sarguzasht ruhiyati, ekzotika, tarixiylik va qahramonlik motivlari orqali aks etgan deya hisoblashadi[13]. Bu yondashuvga ko‘ra, neoromantizm romantizmga xos uslub va syujet elementlarining zamonaviy sharoitlarda yangicha shakllardagi qayta talqini bo‘lib, asosan badiiy tasvir va syujet dinamikasiga tayanadi. Boshqa bir yondashuvda neoromantizm keng qamrovga ega bo‘lib, shunchaki sarguzasht yoki tarixiy janrlar bilan cheklanmasdan, o‘z davrida mavjud romantik ruhdagi barcha adabiy-falsafiy izlanishlarni ifodalaydi. Bu talqinda neoromantizm individualizm, ruhiy iztirob, idealizm, tabiatga oshuftalik, ilhom va erkinlikni badiiy tasvirlash orqali jamiyatga nisbatan badiiy-falsafiy pozitsiyani bildiruvchi yaxlit konseptual makon sifatida talqin etiladi[14].

Rus adabiyotida neoromantizm XX asr boshlarida *simvolizm, akmeyizm va ekzistensializm* oqimlari bilan uzviylikda shakllandi. Ushbu yo‘nalishlar inson ruhiyati, ichki ziddiyatlar, go‘zallik va ma’naviy izlanishlarga chuqur poetik hamda falsafiy asos yaratdi. *Simvolizm* – XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Fransiya hamda Rossiyada paydo bo‘lgan, dvoryan-burjua adabiyotidagi reaksion oqim. Simvolistlar faqat va faqat ramzlar vositasida ifodalash kerak, narsa va voqealarni to‘g‘ri ko‘rsatish adabiyotni halokatga olib keladi, deb bilganlar. Uning vakillari (*A.Blok, A.Bely, V.Solovyov*) tashqi olamni emas, balki “yuqori haqiqat”ni ramzlar orqali aks ettirishga harakat qilganlar. *Akmeizm* – (*yun.* akme – cho‘qqi so‘zidan). Rus she’riyatida yuzaga kelgan oqim. Bu oqim simvolizmga o‘xshab, burjua dvoryan madaniyatining inqirozi natijasida yuzaga keldi. Biroq u simvolizmdan farqli holda mististizmdan chekinib, insoniy tuyg‘u, tabiiy dunyoni tasvirlashga intildi. Akmeyistlarning ijodi ijtimoiy hayotdan uzoq bo‘lib, xalq

[11] Фесенко Е.Я. Теория литературы. – Москва: Академический проект, 2008. – С. 96.
[12] Луков В.А. История литературы. – Москва: Высшая школа, 2003. – С. 214.
[13] Eagleton T. Literary Theory: An Introduction. – Oxford: Basil Blackwell, 1983. – 244 p.
[14] Wellek R., Warren A. Theory of Literature. Harcourt, Brace & World, 1949. – P. 140-142.

uchun zararli edi. Bu oqim vakillari *M.Kuzmin, A.Axmatova, O.Mandelshtam* adabiy tilni “aniq, sof, hayotiy obrazlar bilan boyitilgan” shaklda izohladilar[15]. *Ekzistensializm* (existense – mavjudlik) XX asrdagi ana shu nomdagi falsafa asosida vujudga kelgan modernistik oqim. Asosida inson hayotining ma’nosi, shaxs erki va mas’uliyati muammolari turadi. Adabiy oqim sifatida ekzistensializm borliq va insonning g‘aroyib sirli-sehrli jihatlari xususida bahs yuritadi. Ushbu adabiyot namunalarida insonning jamiyatga begonaligi, yolg‘izligi, mahkumligi muammosi ko‘tariladi[16]. Bu uch oqim sintezi rus neoromantizmini nafaqat badiiy, balki estetik-falsafiy jihatdan ham mustahkam harakatga aylantirdi. U inson ichki olamining murakkab kechinmalarini chuqur tahlil qilish imkoniyatini berdi.

O‘zbek adabiyotida neoromantizm XX asr boshlarida milliy uyg‘onish harakatlari va jadid adabiyoti bilan uzviylikda shakllangan. Shuni ta’kidlash joizki, u alohida oqim sifatida emas, balki muayyan xususiyatlar majmui tarzida namoyon bo‘lgan.

Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida Otabek timsolida jamiyat islohoti uchun kurashuvchi, idealistik qarashlarga ega neoromantik obraz yaratilgan[17]. Cho‘lpon “Kecha va kunduz” romanida hamda lirikasida inson ruhiyatining ichki parokandaligi, ozodlik va adolat uchun kurashni lirizm hamda dramatizm orqali ifoda etadi[18]: uning neoromantik obrazi – yuragi ozodlik junbishida urayotgan, hayot haqiqatini san’at vositasida izlayotgan shaxsdir. Abdurauf Fitrat “Temur sag‘anasi”[19] va “Abulfayzxon”[20] kabi tarixiy – falsafiy dramalarida tarixiy shaxslar obrazi orqali ma’naviy fidoyilik, milliy uyg‘onish va o‘zligiga qaytish g‘oyalarini ilgari suradi – uning uchun tarix shunchaki o‘tmish emas, hozirgi avlodga ma’naviy saboq beruvchi manbadir. Qodiriy, Cho‘lpon va Fitrat o‘zbek adabiyotida neoromantizmning estetik-falsafiy asoslarini boyitgan ijodkorlar sifatida e’tirof etiladi. Ularning asarlarida shaxsiy kechinma, milliy o‘zlik, ozodlik ruhi va ma’naviy yuksalish neoromantik uslubda chuqur badiiy talqinga ega bo‘lgan.

Yuqorida keltirilgan ilmiy qarashlarni umumlashtirish asosida mazkur tadqiqotda neoromantizmning asosiy tamoyillari sifatida quyidagilar belgilanadi: shaxs erkinligi va ichki mustaqillik, ma’naviy kamolotga intilish, axloqiy tanlov muammosi, sarguzasht va tarixiylik uyg‘unligi, estetik ideal hamda romantik tasvir bilan real voqelikning dialektik birligi. Ushbu tamoyillar neoromantik poetikaning nazariy negizini tashkil etadi. Agar umumiy poetika har qanday badiiy asarning shakliy-kompozitsion xususiyatlarini – syujet qurilishi, obrazlar tizimi, badiiy til vositalarini – universal tarzda o‘rgansa, neoromantik poetika aynan shu tamoyillarning syujet, obraz, ramz, motiv va kompozitsiya kabi badiiy vositalar orqali ifodalanish tizimini, ya‘ni neoromantizm estetikasiga xos badiiy shakllanish

[15] Акмеизм //Литературный энциклопедический словарь. – Москва: Советская энциклопедия, 1987.
[16] Экзистенциализм //Литературный энциклопедический словарь. – Москва: Советская энциклопедия, 1987.
[17] Қодирий А. Ўткан кунлар. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2018. – 463 б.
[18] Чўлпон. Кеча ва кундуз. Танланган асарлар II жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2012. –347 б.
[19] Karimov N. Hurriyat bayrog‘i. O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 2008. 21-son.
[20] Фитрат А. Танланган асарлар // Сўзбоши ва изоҳлар муаллифи: Ҳ.Болтабоев. 1-жилд. Шеърлар, насрий асарлар, драмалар. – Тошкент: Маънавият, 2000. – 256 б.

mexanizmini tadqiq qiladi. Shu nuqtayi nazardan, “neoromantik kontekst” tushunchasi – tadqiqotning usullari qismida ta’riflangan umumiy metodologik “kontekst” yondashuvining Stivenson ijodiga nisbatan aniqlashtirilgan ko‘rinishi bo‘lib – yozuvchi asarlarini XIX asr oxiri ingliz adabiyotining estetik qarashlari, romantizm va realizmning o‘zaro ta’siri hamda yuqorida sanalgan neoromantik tamoyillar bilan bog‘liq holda tahlil qilishni anglatadi. Aynan shu ta’rif tadqiqotning barcha uch bobida qo'llaniladigan yagona nazariy-metodologik asos vazifasini bajaradi.

Birinchi bobning ikkinchi fasli ***“Viktoriya davri ijtimoiy-madaniy muhitining neoromantizmga ta’siri”*** deb nomlangan bo‘lib, Viktoriya davri mustamlakachilik siyosati madaniy tafakkur, badiiy ifoda va ideologik dominantlik orqali neoromantizmning shakllanishida ham muhim xizmat qilganligi, madaniyat hayot tasviri, tun, ekzotik tasvirlar va oddiy insonlar obrazlariga bo‘lgan qiziqish neoromantik adabiyotda chuqur aks etganligi haqida so‘z boradi. Viktoriya davrining adabiy manzarasi chuqur ijtimoiy, ma’naviy va estetik o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bu davr yozuvchilari insoniyatning ruhiy iztiroblari, ijtimoiy tengsizliklar, axloqiy qarama-qarshiliklar va modern hayotning murakkabliklarini mohirlik bilan badiiy ifoda etishga kirishdilar. Adabiyot endilikda nafaqat go‘zallikni targ‘ib qiluvchi estetik hodisa, balki jamiyatni tahlil qiluvchi va axloqiy ongni uyg‘otuvchi kuchli ijtimoiy mexanizmga aylandi. Aynan shu nuqtada Charlz Dikkens, Jorj Eliot, Tomas Hardi, Alfred Tennison va Robert Braunig kabi adiblar zamonaviy roman, she’riyat hamda dramatik janrlarning shakllanishiga samarali ta’sir ko‘rsatdilar. Dikkensning “Oliver Twist” va “Great Expectations” (“Oliver Tvist”, “Buyuk umidlar”) asarlarida sanoat jamiyatidagi bolalar mehnati, tabaqalanish va axloqiy inqirozlar oshkora tasvirlanadi. Jorj Eliot esa “Middlemarch” (“Midlmarsh”) romanida ayol shaxsiyati va individual erkinlik masalasini murakkab psixologik hamda falsafiy kontekstda talqin qiladi. Bu adiblarning asarlarida neoromantik ruh sezilib turadi: ularning qahramonlari jamiyatdagi muammolardan ko‘ra ko‘proq iztiroblari, axloqiy mezonlarga tayanilgan qarorlari va orzulari bilan kurashadilar.

Neoromantizm ayollar o‘zini anglash yo‘lida yuzaga keladigan dramatik burilishlarni ham o‘rganishga alohida e’tibor qaratgan. Bu holatlarni ham Thomas Hardyning “Tess of the d’Urbervilles” romanida yaqqol ko‘rish mumkin. Tess obrazida nafaqat ayolning tabiiy go‘zalligi, balki uning fojiali taqdiri, ijtimoiy me’yorlarga qarshi isyoni va pok vijdonini saqlab qolishga intilishi orqali neoromantik axloqiy dramatizm ifodalanadi. Hardy Tess orqali jamiyatning adolatsiz munosabatiga qarshi insoniylik va halollikni qarama-qarshi qo‘yadi.

Viktoriya davrida adabiyot ommaviylik kasb eta boshladi. Bu esa neoromantizmning ommaviy adabiyot bilan bevosita bog‘lanishiga olib keldi. Kundalik qat’iy tartibli hayot tarzidan charchagan kitobxonlar sanoatlashtirilgan jamiyatdagi begonalashuv hissi, shahar shovqinidan qochish istagi ularni sarguzasht, romantika, ichki uyg‘onish va idealistik orzular bilan to‘la neoromantik asarlarga yo‘naltirdi. Adabiyotshunos va tarixchi Jonatan Rouz (Jonathan Rose) bu jarayonni shunday ta’riflaydi: *“Kitob o‘qish ijtimoiy marosimga aylandi, bu*

shaxsiy tafakkur va hissiy uyg‘unlik lahzasi bo‘lib, Viktoriya davrining turli sinflarini birlashtirgan”[21].

Bobning uchinchi **faslida *jahon adabiyotshunosligida Robert Luis Stivenson ijodining tadqiqi*** tahlil qilinib, uning neoromantizm taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi o‘rganilgan. Neoromantizmning badiiy-falsafiy tamoyillari va Viktoriya davrining murakkab madaniy hamda ijtimoiy xususiyatlari Robert Luis Stivenson ijodining shakllanishi va taraqqiyotini har tomonlama anglash uchun zarur asos yaratadi. Aynan shu tarixiy va estetik muhitda yetishib chiqqan Stivenson o‘zining asarlari bilan neoromantik adabiyotga samarali hissa qo‘shgan, jahon adabiyotida o‘ziga xos uslub va mazmun yaratgan ijodkor sifatida tan olingan. Shu sababli, mazkur faslda yozuvchi ijodining jahon adabiyotshunosligida baholanishi va tadqiqi borasida so‘z yuritiladi.

G‘arb adabiyotshunoslari Nicholas Daly, Hugh Walker, Thomas Eliot, Harold Bloom va Richard Ambrosi Stivensonni neoromantizmga qo‘shgan adabiy hissasini o‘zlarining keng qamrovli tadqiqotlarida chuqur tahlil qiladilar. Adabiyotshunos Richard Ambrosinining fikricha, *“Stivensonning asarlari zamonaviylik va an’anaviy yondashuv o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajaradi”*[22]. Julia Reid esa uning ijodini *“bir tomondan fantaziya, ikkinchi tomondan, antropologik realistik kuzatuvlar bilan jamuljam noyob adabiy makon” deb baholaydi*[23].

XX asr o‘rtalariga kelib Stivenson asarlari “aysberg” nazariyasiga ko‘ra talqin qilina boshlandi. Adabiyotshunoslar asarlarning ortida yashiringan ma’no, psixologik ziddiyat va estetik uyg‘unlikni izlay boshladilar. Ana shu talqinlarda Stivenson ijodining mohiyati qayta ochildi. Britaniyalik tanqidchi Hugh Walker uni “*yengil, ammo intellektual zavq bag‘ishlovchi yozuvchi”* deb baholab, Stivenson hikoyalarining ortida chuqur mushohadali muallif turganini ta’kidlaydi. Bunday yuqori baho – hikoya orqali inson ruhiyatiga kirib borish mahoratining tan olinishi edi[24]. Stivenson asarlari kitobxonni nafaqat sershovqin va sertashvish hayotning badiiy ifodalangan sirli olamiga, balki o‘z qalbining chuqur qatlamlariga ham sayohat qilishga chorlaydi. Yana bir yuksak e’tirof modern adabiyotning yetakchi namoyandalaridan biri, taniqli shoir va tanqidchi Thomas Stearns Eliot tomonidan berilgan. Stivensonning “Dr. Jekyll va Mr. Hyde” asarini chuqur tahlil qilgan Thomas Eliot undagi psixologik konfliktlarni, insoniyatning ichki ziddiyatlarini ifodalovchi gotik uslubni yuqori baholagan. Tanqidchining nazdida, “Stivenson zamonasining ilg‘or vakillaridan biri sifatida hozirgi zamon yozuvchilari qo‘llaydigan psixologik va adabiy vositalarni o‘z davridayoq badiiy ifoda qila olgan”[25].

---

[21] Rose J. The Intellectual Life of the British Working Classes. – New Haven: Yale University Press, 2001. – P. 176.
[22] Ambrosini R. Robert Louis Stevenson: Writer of Boundaries. – Madison, WI: University of Wisconsin Press, 2006.
[23] Reid J. Robert Louis Stevenson, Science, and the Fin de Siècle. Basingstoke. – New York: Palgrave Macmillan, 2006. – P. 93.
[24] Walker Hugh, and Mrs. Hugh Walker. Outlines of Victorian Literature. – Cambridge: Cambridge University Press, 2011.
[25] Eliot T.S. Robert Louis Stevenson. The Athenaeum, January 1927. – P. 145-147.

AQSh adabiy jamoatchiligida Stivensonni “proto-modernist” yozuvchi sifatida e’tirof etish tendensiyasi ham mavjud. U sarguzashtga asoslangan syujet soddaligini saqlagan holda, kechinma, ichki ziddiyat va axloqiy muammolarning badiiy ifodasi bilan boyitgan. Shu bois u *“kommersiya va falsafaning o‘ziga xos uyg‘unligiga erishgan yozuvchi”* sifatida ulug‘lanadi[26]. *“Dr. Jekyll va Mr. Hyde”* romani AQShda ko‘p muhokama qilingan hamda sahnalashtirilgan asarlardan biri hisoblanadi. Adabiyotshunos *Harold Bloom* bu asarni *“modern zamonning inson ongi haqida eng g‘amgin falsafiy allegoriyalaridan biri”* deb ataydi”[27].

Rus adabiyotshunoslari Stivenson asarlaridagi inson va jamiyat ziddiyati hamda ichki axloqiy kurash mavzularining Dostoyevskiy, Tolstoy, Gogol an’analariga yaqinligini qayd etganlar. V.Shklovskiy “Dr. Jekyll va Mr. Hyde” asarini “shaxsiyatning ijtimoiy niqoblar ostida ezilishi” haqida yozilgan “global psixologik tragediya” sifatida ta’riflagan[28].

Buyuk Britaniyada Julia Reidning “Robert Luis Stivenson and the Evolutionary Sciences” (PhD thesis, University of Oxford, 2002) tadqiqoti yozuvchining evolyutsion g‘oyalar bilan badiiy tafakkur tutashuvini yoritsa, Christy Danelle Di Francesning “Robert Luis Stivenson and the Elements of Adventure” (PhD thesis, University of Aberdeen, 2011) ishida Stivenson sarguzasht janri poetikasiga kiritgan yangiliklari, qahramonlar ruhiyatining murakkabligi va axloqiy ziddiyatlar orqali syujet yaratish mahorati tahlil qilinadi[29]. Tadqiqotchilar uni “gibrid yozuvchi” – bir vaqtning o‘zida tarixchi, badiiy kashfiyotchi va ruhshunos sifatida baholaydilar.

Xulosa qilib aytganda, Stivenson ijodi neoromantizmning universal tamoyillarini ifodalash bilan birga bu oqimni zamonaviy adabiy tafakkurga yaqinlashtiruvchi badiiy ko‘prik vazifasini bajaradi. Uning qahramonlari tashqi syujet vositasida emas, ichki kechinmalar orqali rivojlanadi – bu esa yozuvchini axloqiy-falsafiy ijodkor sifatida baholashga imkon beradi.

Tadqiqotning ikkinchi bobi ***“Robert Stivensonning sarguzasht romanlari poetikasi”*** deb nomlangan bo‘lib uning birinchi faslida *“Treasure Island” (“Xazinalar oroli”) romanida yakkalanish (eskapizm) va sarguzasht motivlari* talqin qilinadi. Neoromantik adabiyotda eskapizm reallikdan chekinish sifatida emas, balki ijtimoiy va axloqiy tartiblarni qayta talqin qilish vositasi sifatida tushuniladi. Rosemary Jackson eskapizmni “ijtimoiy tartibni vaqtincha chetlab o‘tish orqali muqobil ma’no maydonini yaratish” jarayoni sifatida talqin qiladi[30]. Northrop Frye sarguzasht roman janrini arxetipik tuzilish sifatida tahlil qilar ekan, unda qahramonning kundalik va tartibli hayot tarzidan sinov hamda xavf-xatar

[26] Booth A. Greatness Engendered: George Eliot and Virginia Woolf. – Ithaca: Cornell University Press, 1992. – P. 178.
[27] Bloom H. Genius: A Mosaic of One Hundred Exemplary Creative Minds. – New York: Warner Books, 2004. – P. 145.
[28] Шкловский В. Техника писательского мастерства. – Москва: Советский писатель, 1972. – С. 272.
[29] Reid, Julia. Robert Louis Stevenson and the Evolutionary Sciences. PhD thesis. – University of Oxford, 2002, Di Frances, Christy Danelle. Robert Louis Stevenson and the Elements of Adventure. PhD thesis, University of Aberdeen, 2011.
[30] Jackson R. Fantasy: The Literature of Subversion. – London: Routledge, 1981. Chapter 1: Fantasy and Desire. – P. 1-20.

makoniga o‘tishini “romance displacement” modeli bilan izohlaydi[31]. Mazkur nazariy model nuqtayi nazaridan qaralganda, Robert Luis Stivensonning “Treasure Island” romanida eskapizm mohirlik bilan aks ettirilgan. Jim Xokins dengiz va noma’lum orolga safarga chiqadi. Safar motivi orqali muallif qahramonini haqiqiy shaxs sifatida shakllanishidagi bosqichlarni tasvirlaydi. Asardagi eskapizm neoromantikaning asosiy tamoyillari – erkinlik, tanlov va ruhiy kamolot bilan uzviylikda namoyon bo‘ladi. Adib bu holatni quyidagi tasvir orqali beradi: *“I remember him as if it were yesterday, as he came plodding to the inn door, his sea–chest following behind him in a hand-barrow; a tall, strong, heavy, nut-brown man, his tarry pigtail falling over the shoulder of his soiled blue coat, his hands ragged and scarred, with black, broken nails, and the sabre cut across one cheek, a dirty, livid white”*[32]. Kamolotga intilish motivi Jim Xokinsning jisman va ma’nan shakllanishini ifodalaydi. Dengiz va noma’lum orol tasvirlari esa erkinlik motivini ifodalab, sayyohlarning yangi tajribalar va imkoniyatlar sari intilishini badiiy ifoda etadi. Asardagi motivlar tizimi o‘zaro uzviylikda sarguzasht ruhini kuchaytiradi hamda inson tabiatidagi ezgulik va yovuzlik, sodiqlik va xiyonat o‘rtasidagi ziddiyatlarni badiiy jihatdan ochib beradi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Romanda obraz va motivlarning badiiy tahlili

T/r	Obraz	Motivning namoyon bo‘lishi	Badiiy vazifasi
1.	Jim Xokins	Kundalik hayot tarzidan sarguzasht olamiga kirib, ruhiy va axloqiy jihatdan yetuk shaxsga aylanadi	Neoromantik qahramoni xarakterining tadrijiy takomilini ta’minlash
2.	Long John Silver	Sarguzashtni boylik va hokimiyatga erishishdagi asosiy maqsad sifatida talqin qiladi	Ambivalent neoromantik obrazning axloqiy ziddiyatini ifodalash
3.	Dr. Livesey	Sayohatga burch va mas’uliyat bilan yondashadi	Insoniy qadriyatlarni saqlash
4.	Squire Trelawney	Sarguzashtni romantik tasavvur va qiziqish bilan qabul qiladi	Romantik sarguzasht estetikasi timsoli
5.	Kapitan Smollett	Qat’iy tartib, intizom bilan ekspeditsiyani boshqaradi	Realizm va strategik harakatni ifodalash
6.	Ben Gunn	Sarguzashtning mashaqqatlari natijasida fojiaviy vaziyatlarni matonat bilan yengadi	Sarguzasht motivining keskin dramatizm orqali ochilishi

[31] Frye N. Anatomy of Criticism. – Princeton: Princeton University Press, 1957. Chapter 2: The Fantastic as Subversion. – P. 25-48.

[32] Stevenson R.L. Treasure Island. – London: Cassell & Company, 1883 (Chapter I: The Old Sea-dog at the Admiral Benbow). Ingliz tilidan muallif tarjimasi: *“Uni go‘yo kechagidek eslayman. U mehmonxona eshigi tomon og‘ir qadamlar bilan yaqinlashardi, ortidan dengiz sandig‘i qo‘l aravada olib kelinar edi. U baland bo‘yli, baquvvat, vazmin, oftobda qoraygan odam edi. Smola tekkan uzun o‘rimi iflos ko‘k kamzulining yelkasiga tushib turardi. Qo‘llari yirtilgan va chandiqli, tirnoqlari qorayib singan, yuzining bir yonida esa qilich zarbidan qolgan oqarib ketgan uzun chandiq ko‘rinib turardi”.*

7.	Billy Bones	Piratlar qismatining tanazzulini ko‘rsatadi	Sarguzasht motivining ayanchli oqibatlarini ifodalash

Muallif obrazlar taqdiri orqali sarguzasht motivining romantik, axloqiy, fojiaviy va psixologik jihatlarini ochib beradi. Eskapizm va sarguzasht motivlari qahramonlar taqdirini shakllantiruvchi asosiy badiiy omillar hisoblanadi. Roman nafaqat sarguzasht hikoyasi, balki inson tabiatidagi axloqiy ziddiyatlarni tasvirlovchi badiiy asar sifatida ham tahsinga loyiq. Asarda eskapizm va sarguzasht motivlarini badiiy jihatdan ochib berishda obrazlar tizimi muhim rol o‘ynaydi. Jim Xokins obrazi sarguzasht orqali ma’nan yetuklikka intilgan qahramon tipini ifodalaydi. Uning xavfli holatlarga duch kelishi, mustaqil qaror qabul qilishi va matonati qahramonning ruhiy jihatdan tadrijiy taraqqiyotini belgilaydi. Muallif tasviriy vositalar va detal poetikasidan ham samarali foydalanadi. Dengizning ajabtovur manzaralari, kemaning shiddatli harakati, orolning so‘lim tabiati, xarita va xazina bilan bog‘liq kichik detallar sarguzasht muhitini estetik jihatdan boyitadi. Bunday tasvirlar kitobxonda sirli va romantik kayfiyat uyg‘otadi. Romanda eskapizm va sarguzasht motivlari ekzotik makon tasviri, konsentrik syujet, murakkab obrazlar tizimi hamda tasviriy vositalar orqali ifodalanadi. Ushbu poetik unsurlar asarning romantik – sarguzasht ruhini shakllantiradi va qahramonlarning ichki rivojlanishi hamda voqealar dramatizmini ochib berishga xizmat qiladi. Tabiatning betakror go‘shalariga intilish, noma’lum olamlarni kashf etishga bo‘lgan qiziqish va sarguzashtga moyillik qahramonlarning ruhiy olamini ochib beradi.

Bobning ikkinchi fasli ***“Kidnapped” (“O‘g‘irlangan”) romanida mashaqqatlarni yengish orqali erk va muvaffaqiyatga erishish g‘oyasi talqini”*** deb nomlanib, unda erkka intilish va muvaffaqiyatga erishish g‘oyasi meros yoki tayyor maqom ta’sirida emas, qiyinchiliklar orqali shakllanishi tarzida ifodalanishi tahlil qilinadi. Asarda bosh qahramon David Balfourning mustaqillikka erishish yo‘lidagi sinovlari tasvirlanadi: qahramon erkni ijtimoiy maqom orqali emas, balki mushkulotlar orqali qo‘lga kiritadi. “Kidnapped” romanida mustaqillik g‘oyasi romantik tasavvurlar shaklida emas, balki real tarixiy va ijtimoiy sharoit bilan to‘qnashuv orqali ochiladi. Qahramon zo‘ravonlik aralashuvi tufayli keskin sinovlarga duchor bo‘lsa-da, sarguzasht davomida ichki qat’iyat va bukilmas irodani shakllantiradi; qiyinchilik uni mashaqqatlar girdobiga tashlash emas, balki irodasi mustahkam inson sifatida rivojlanishiga zamin yaratadi. Faslda “Kidnapped” romanida muvaffaqiyat g‘oyasining neoromantik talqini qahramonning sinovlar orqali shakllanish bosqichlari hamda yozuvchining badiiy mahorati tahlili asosida ko‘rib chiqiladi. Metodologik asos sifatida neoromantizm nazariyasi, qahramon xarakterining tadrijiy dinamikasi va xronotop konsepsiyasi qo‘llaniladi. Ushbu yondashuvlar romandagi sarguzashtni tashqi voqealar ketma-ketligi emas, balki qahramon xarakterining shakllanish jarayoni sifatida talqin qilish imkonini beradi. Kema bortida David o‘z holatini quyidagicha ifodalaydi: *“Here I lay for the space of many days a close prisoner, and not only got my health again, but came to know my companions. They were a rough lot indeed, as sailors mostly are: being men rooted out of all the kindly parts of life, and*

condemned to toss together on the rough seas, with masters no less cruel…"[33] Bu tasvirda kemada asirlikka olingan David qisqa vaqt ichida dengizchilar bilan tanishadi. Adib dengizchilarning qiyin hayoti va og‘ir dengiz muhitini tasvirlaydi. Mashaqqatlar girdobida qolgan qahramonning hayot haqidagi tasavvurlari butkul o‘zgarib boradi. Zo‘ravonlik orqali qahramonning tinch hayotdan yiroqlashtirilishi uning ijtimoiy zaifligini keskinlashtiradi, uni majburiy sinov makoniga olib kiradi. David kemada odamlarni kuzatadi, ularni o‘rganadi va o‘z pozitsiyasini shakllantira boshlaydi. Demak, tutqunlik – qahramon uchun zaiflik emas, balki toblanishning boshlanishidir. David Balfourning mustaqillikka erishish qarori tashqi sarguzasht hodisalari orqali emas, balki ichki qat’iyat orqali keskin burilish nuqtasiga yetadi. Zo‘ravonlik muhiti va hayot uchun xavfli sharoitda qahramonning qaltis tanlovi uning shaxs sifatida shakllanish jarayonidagi eng muhim bosqichni tashkil etadi. Xulosa qilib aytganda, “Kidnapped” romanida qahramonning shaxs sifatida shakllanishi turli mashaqqatlar orqali tasvirlanadi. Xiyonat, xavfli sayohatlar, tabiat bilan kurash, siyosiy mojaro va do‘stlik kabi poetik omillar qahramon xarakterining shakllanishiga samarali ta’sir ko‘rsatadi. Stivenson bu jarayon orqali insonning qiyinchiliklar orqali yetuklikka erishishi mumkinligini badiiy jihatdan asoslaydi. Shu sababli roman nafaqat sarguzasht asari, balki shaxsiy kamolot g‘oyasini yorituvchi muhim badiiy asar sifatida ham muhim ahamiyatga ega.

Mazkur bobning uchinchi fasli ***“Sarguzasht romanlarda kvest syujetining adabiy-estetik vazifasi”*** deb nomlanib, Stivensonning “Treasure Island” va “Kidnapped” romanlarining neoromantik adabiyotdagi badiiy qimmati tahlil qilinadi. So‘ngi Viktorian davri sarguzasht romanining badiiy qiymati, avvalo, syujet dinamikasi va kvest (izlanish) modeli negizida namoyon bo‘ladi. Kvest – shunchaki sayohat emas, balki aniq maqsad (xazina, meros, adolat, erkinlik) atrofida qurilib, qahramonning qarorlarini keskinlashtiruvchi syujet tizimidir. Northrop Frye va Joseph Campbell nazariyalariga ko‘ra, kvest syujetida sarguzasht, psixologik va falsafiy unsurlar birlashib, keng qo‘llanilgan “yo‘l” motivi tashqi makon o‘zgarishi bilan birga qahramonning ruhiy takomilini ramzlaydi. “Treasure Island”da Jim Xokinsning sayohati Campbell ta’riflagan “departure” bosqichiga mos keladi; xarita poetik vazifa bajarib, xazina sari eltish bilan birga qahramonning ichki o‘sishini ifodalaydi. Long John Silver esa antagonist sifatida neoromantik ambivalentlikning timsoli bo‘lib, Jimning ma’naviy shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi. “Kidnapped”da David Balfurning kvesti geografik va ma’naviy izlanish sifatida talqin qilinadi; Shotlandiya tog‘lari poetik makon vazifasini bajarib, qahramonning qo‘rquvdan jasoratga, tajribasizlikdan mulohazakorlikka o‘tishini ramziy ifodalaydi. Ikkala roman bildungsroman an’anasiga uyg‘un holda ommaviy va murakkab janrlararo badiiylikni

[33] Stevenson R.L. Treasure Island. – London: Cassell & Company, 1883 (Chapter I: The Old Sea-dog at the Admiral Benbow). Ingliz tilidan muallif tarjimasi. – B. 64-65. Ingliz tilidan muallif tarjimasi: *“Men bu yerda ko‘p kunlar davomida mahbus kabi yashadim. Bu vaqt ichida nafaqat sog‘lig‘imni tikladim, balki hamrohlarimni ham yaqindan tanidim. Ular, aksariyat dengizchilar singari, qo‘pol va dag‘al odamlar edilar. Ular hayotning mehr-muhabbatga boy tomonlaridan uzilib qolgan, shafqatsiz xo‘jayinlar qo‘l ostida notinch dengizlarda birga yashashga mahkum insonlar edi”.*

muvaffaqiyatli birlashtirgani bilan neoromantik poetikaning namunasiga aylangan. Sarguzasht romanning badiiy qiymati shundaki, u ommaviy bo‘la turib, ichiga murakkab janrlararo aloqadorlikni ta’minlay oladi. Bu “ikki qatlamlilik”ning uch ko‘rinishi bor:

1. *Janrlararo sintez: adventure + historical.* “Kidnapped”da sarguzasht syujeti (o‘g‘irlik, meros, qochish, quvish) tarixiy roman elementlari (makonning tarixiy kodlari, siyosiy ziddiyatlar, “Red Coats” nazorati) bilan uyg‘unlashadi. Jaëck buni tajriba sifatida talqin qilib, Stivenson Scott meros qilib qoldirgan tarixiy roman “hududi”sini o‘zlashtirib, uni qayta belgilashga urinishini aytadi[34].

2. *Ommaviy o‘qish va badiiy struktura.* Ommaviy auditoriya talab qiladigan jihatlar – syujetning tezligi, qiziqarli epizodlar, “yengil o‘qiladigan” uslub. Badiiy adabiyot talab qiladigan jihatlar – qat’iy struktura, ma’no qatlamlari, xarakter tadriji. Dryden bu masalada Stivenson poetikasini aniq belgilaydi: “By refusing a clear moral closure … he never forgot the overall narrative impetus”[35].

3. *“Yoshlar uchun” mo‘ljallanganlik.* Sarguzasht roman “oddiy til”da yozilishi mumkin. O‘quvchilar auditoriyasini keng qamrab olish uchun uslub ravshanlashtiriladi, lekin struktura va motivlar tizimi murakkablashtiriladi. “Treasure Island”ning “xarita → kvest → o‘zlikni kashf etish” modeli va “Kidnapped”ning “yo‘l → ijtimoiy kodlar → o‘zlikni aniqlash bosqichi” modeli shuni ko‘rsatadi: “yoshlar romani” ko‘rinishi ostida Stivenson neoromantik prozaning o‘ziga xos xususiyatini yaratdi.

Yuqoridagi nazariy mulohazalar umumlashtirilib, sarguzasht romanlarining neoromantik adabiyotdagi badiiy qimmatini asoslovchi mezonlar aniqlandi: “Treasure Island” kvest syujeti orqali eskapizmni “sinovlardan qochish” emas, balki xarakter sinoviga aylantiradi: kitobxon xazina izlash jarayonida sadoqat va xiyonat muammolari bilan yuzma-yuz keladi. “Kidnapped”da kvest tarixiy makon bilan birlashib, sarguzasht ijtimoiy-madaniy tajriba darajasiga olib chiqiladi: qahramon safar davomida nafaqat xavfdan qutuladi, balki o‘zlikni aniqlash va adolat mezonlarini qayta idrok qiladi.

Tadqiqotning uchinchi bobi ***“Robert Stivenson tarixiy romanlarida neoromantizim tamoyillari”*** deb nomlangan. Tadqiqotning birinchi faslida Robert Stivenson tarixiy romanlarida neoromantizm tamoyillari tahlil qilinadi. Gyorgy Lukacsning ta’rifiga ko‘ra, tarixiy roman o‘tmishni rekonstruksiya qilish bilan cheklanmay, tarixiy o‘zgarishlarni tipik qahramonlar taqdiri orqali ochib beradi[36]. Tarixiy roman va neoromantizm o‘rtasidagi aloqadorlik janrlararo sintez tarzida namoyon bo‘lib, tarixiy faktlarning badiiy transformatsiyasi va qahramon ichki olamining markazlashtirilishida ko‘rinadi. Amy J.Eliasning “metahistorical romance” konsepsiyasi tarixiy matnni obyektiv haqiqat emas, balki interpretatsiya qilinadigan diskurs sifatida talqin etadi va bu neoromantik subyektivlik bilan uyg‘unlashadi[37]. Neoromantik yondashuvda qahramon tarixiy jarayonlarning “tipik

[34] Jaëck N. Kidnapping the historical novel in Stevenson’s Kidnapped: an act of literary and political resistance // Journal of Stevenson Studies, 2014. Vol. 11. – P. 87.
[35] Dryden L. Romance-ing Treasure Island // Journal of Stevenson Studies, 2013.Vol. 10. – P. 145.
[36] Lukács G. The Historical Novel. Trans. Hannah and Stanley Mitchell. – Harmondsworth: Penguin, 1981. – 448 p.
[37] Elias A.J. Sublime Desire: History and Post-1960s Fiction. – Baltimore: Johns Hopkins University Press, 2001. – 312 p.

vakili” sifatida emas, avvalo, ichki kechinmalari va o‘zligini anglashga intiluvchi shaxs sifatida talqin qilinadi.

Bu holatda qahramon taqdiri ikki xil holatda ifodalanadi:

a) tashqi qatlam – tarixiy voqelik va ijtimoiy muhit;

b) ichki qatlam – ruhiy holat, tadrijiy taraqqiyot va o‘zlikni anglash jarayoni.

Natijada qahramon obrazi nafaqat prototip, balki o‘z ichki dunyosi shakllanayotgan murakkab xarakter sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa neoromantizmning asosiy belgilaridan biri – shaxs takomili mezoniga mos keladi.

Sidney Fleishman tarixiy roman yozishdagi qonuniyatlarni shunday belgilaydi: *“when the novel’s characters live in the same world with historical persons, we have a historical novel*”[38]. Tarixiy roman bo‘lishi uchun matnda real voqea eslatilishi kifoya emas, to‘qima obrazlar tarixiy shaxslar bilan bir tarixiy makon va zamonda yashashi, tarix bilan bevosita tutashishi zarur.

Shuningdek, H.Butterfield “haqiqiy” tarixiy roman masalasida shunday deydi: *“a true ‘historical novel’ is one that is historical in its intention and not simply by accident ...*”[39]. Asar vaqt o‘tishi bilan “tarixiy” bo‘lib qolishi mumkin, ammo tarixiy roman sifatida baholanishi uchun u boshidan o‘tmishga ongli ravishda yo‘naltirilgan badiiy konsepsiya asosida yaratilishi lozim.

Robert Luis Stivenson tarixiy romanlarida neoromantizm xususiyatlari quyidagicha tasniflandi:

1) qahramonning o‘zlikni anglash jarayoni;
2) tabiatning estetik ideallashtirilishi;
3) qahramon xarakterining murakkab talqini;
4) dramatizm va ruhiy evrilishlar.

R.L.Stivensonning tahlil qilinadigan tarixiy romanlari ajratilib, ularning tarixiy xronotopi (zamon-makon), tarixiy tayanch nuqtalari hamda neoromantik poetika bilan tutashadigan belgilar umumlashtirildi (2-jadvalga qarang). Stivenson asarlarida tarixiylik “badiiy tasvir” emas, balki syujetni harakatga keltiruvchi kuch vazifasini bajaradi[40].

2-jadval

R.L.Stivenson tarixiy romanlari tahlili

Asar (yil)	Tarixiy xronotop (zamon-makon)	Tarixiy tayanch nuqta	Neoromantik poetika bilan tutashuv (qisqa)
Kidnapped (1886)	1751-yil, Shotlandiya (Lowland-Highland yo‘nalishi)	Yakobinchilar davri “so‘nggi aks-sadosi”; Appin mojarosi konteksti	Qochish-ta’qib-omon qolish ritmi; tarixiy “bosim”; axloqiy tanlovlar hodisa zanjiri ichida ochiladi

[38] Stocker B.D. Historical Fiction: Towards A Definition // Journal of Historical Fictions, 2019. Vol. 2. No. 1. – P. 67.
[39] O‘sha manba. – B. 67.
[40] Stevenson R.L. Memories and Portraits – “A Gossip on Romance” (Project Gutenberg eBook).

Catriona / David Balfour (1893)	1751-yil, Edinburg va Inveraray atrofidagi huquqiy-siyosiy maydon	“Red Fox” ishi; Alan Breck va James Styuart bilan bog‘liq adolat muammosi	Huquqiy-siyosiy konflikt + fitna ehtimoli; romantik-emotsional idrok va axloqiy bosim dramatik vaziyatlar orqali kuchayadi
The Black Arrow (1888)	Wars of the Roses davri (1453-1487), Angliya	Lancaster-York ziddiyati; vasiylik, lordlararo raqobat	Tarixiylik va sarguzasht mexanizmi uyg‘unlashadi; qadriyatlar (sha’n, sadoqat, jasorat) qahramon tanlovi va harakati orqali ochiladi.

Bobda Stivenson tarixiy romanlarida ijtimoiy tarixiylik, badiiy to‘qima va xronotop masalalari tahlil qilinadi. “Kidnapped” romanida siyosiy mojarolar va yer-mulk munosabatlari orqali tarix “fon” bo‘lib qolmay, qahramon harakatini jadallashtiruvchi badiiy tizim vazifasini bajaradi. Appin qotilligi natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy beqarorlik, “broken clans”, “hunted men”, “spies” kabi tasviriy vositalar doimiy xavf-xatar muhitini yaratib, sadoqat va xiyonat, insoniylik va tubanlik mavzularini yoritadi.

“Catriona” asarida XVIII asr Shotlandiyadagi sud jarayonlaridagi nohaqliklar markaziy o‘rinni egallaydi. Adib ikkala asarda bir xil tarixiy voqeani turli nuqtayi nazardan talqin qiladi: “Kidnapped”da Appin qotilligi neoromantik sarguzasht kontekstida ifodalansa, “Catriona”da u adolatsizlik va siyosiy bosimni ochib beruvchi g‘oyaviy markaz vazifasini bajaradi. “The Black Arrow” asarida esa Atirgullar urushi (1453-1487) davri va Lancaster – York sulolalari qarama-qarshiligi asosiy tarixiy zamin bo‘lib, tarixiy voqelik axloqiy sinovlar bilan boyigan neoromantik badiiy makonga aylanadi.

Xulosa qilib aytganda, Stivenson tarixiy romanlarida tarixiylik Scott an’anasiga xos “o‘tmish manzarasi” sifatida emas, ijtimoiy-tarixiy jarayonning badiiy voqelikka aylanishi sifatida talqin qilinadi. Neoromantizm esa bu poetikaga syujetning shiddatli tus olishi, dramatik burilishlar va sarguzasht dinamikasi kabi yangi elementlarni olib kiradi.

Uchinchi bobning ikkinchi fasli ***“Catriona” (“Katriona”) romanida romantik tuyg‘ular orqali tarixiy voqelik ifodasi”*** deb nomlanib, bu faslida “Catriona” romanida romantik tuyg‘ular orqali tarixiy voqelik ifodasi masalasiga bag‘ishlanadi. Ushbu faslda romantik tuyg‘ular tarixiy voqelikni “bezash” uchun emas, balki uni idrok etish va badiiy tashkil etishning yetakchi unsuri sifatida qo‘llanilishi tahlil qilinadi: tarixiy bosim – siyosiy taranglik, ta’qib, ijtimoiy qarama-qarshilik – qahramonning hissiyotlarini shakllantirib, uning axloqiy tanlovlarini keskinlashtiradi.

“Catriona” XVIII asr Shotlandiyasining murakkab siyosiy sharoiti fonida tarixiy voqelik bilan badiiy psixologizmning sintezini namoyon etadi. Roman markazida Devid Balfur va Katriona Drammond o‘rtasidagi munosabatlar turadi – bu oddiy sevgi hikoyasi emas, balki og‘ir ijtimoiy-siyosiy sharoitda shakllanadigan ma’naviy-ruhiy bog‘liqlikdir. Katriona obrazida sadoqat, sabr va ishonch

mujassam bo‘lib, u an’anaviy romantik qahramonlar stereotipidan farqli ravishda axloqiy mezonlar bilan uyg‘unlashadi. Devid obrazida esa siyosiy majburiyatlar bilan pok tuyg‘ular o‘rtasidagi ichki ziddiyat ruhiy taranglikni yuzaga keltiradi. Appin voqealari va sud jarayonlari sharoitida uyg‘ongan sevgi romantik tuyg‘ularni idealistik holatdan tarixiy sharoit bilan hisoblasha oladigan qat’iyatga aylantiradi.

Natijada, Stivenson romantikani ideallashtirmay, uni tarixiy reallik, axloqiy munosabatlar va ichki konfliktlar bilan uyg‘unlashtiradi. “Catriona” neoromantik tarixiy roman sifatida qahramon ruhiyatidagi evrilishlarni tarixiy voqelik fonida chuqur va ishonarli tarzda ochib beradi.

Romanda tarixiy xronotop ilk satrlardayoq aniq belgilanib, voqealar zamoni aniq sanalarda ifodalanadi: *“The 25th day of August, 1751, about two in the afternoon, I, David Balfour, came forth of the British Linen Company, a porter attending me with a bag of money, and some of the chief of these merchants bowing me from their doors. Two days before, and even so late as yestermorning, I was like a beggarman by the wayside, clad in rags, brought down to my last shillings, my companion a condemned traitor, a price set on my own head for a crime with the news of which the country rang. Today I was served heir to my position in life, a landed laird, a bank porter by me carrying my gold, recommendations in my pocket, and (in the words of tho saying) tho ball directly at my foot”*[41].

“Catriona”da tarixiy voqelik xavf, ta’qib va ayblov motivlari bilan shiddatli tus oladi. Qahramon Edinburgni “baland binoli, qoramtir shahar” sifatida tasvirlaydi – bu manzara shunchaki dekor emas, balki uning ichki holati va tahlikali vaziyatining aksidir. Appin qotilligi mojarosi esa syujetning tayanch nuqtasiga aylanadi: tarixiy voqelik qahramonni ikki olov orasida qoldiradi – u, bir tomondan, yakobinchilar agentiga, ikkinchi tomondan esa, hokimiyat vakiliga murojaat qiladi. David bu holatni “quyon bilan birga yugurib, itlar bilan ov qilish” deb baholaydi. Natijada tarixiy voqelik “o‘tmish manzarasi” emas, qahramonni ma’naviy va psixologik bosim ostida qat’iy qaror qabul qilishga majbur etuvchi dramatik maydon vazifasini bajaradi.

Stivenson romantik tuyg‘uni sentimental tasvirga aylantirmaydi – uni syujet harakatini kuchaytiruvchi badiiy vosita sifatida beradi. Katriona bilan ilk uchrashuv sahnasida tuyg‘u “betakror go‘zallikni tasvirlash” orqali emas, qahramon shuuridagi ruhiy jarayon sifatida ifodalanadi: *“It chanced the girl turned suddenly about... There is no greater wonder than the way the face of a young*

[41] Stevenson R.L. Catriona: A Sequel to “Kidnapped”; Being Memoirs of the Further Adventures of David Balfour at Home and Abroad. Colonial edition. – London; Paris; Melbourne: Cassell and Company Limited, 1891. – P. 1. Ingliz tilidan muallif tarjimasi: *“1751-yil 25-avgust kuni soat taxminan ikkilarda men, Devid Balfur, British Linen Company binosidan chiqib keldim. Yonimda pul solingan xaltani ko‘tarib borayotgan xizmatchi bor edi, kompaniyaning nufuzli savdogarlari esa meni eshik oldidan hurmat bilan kuzatib qo‘ydilar. Bundan atigi ikki kun avval, hatto kecha ertalab ham men yo‘l chetida yurgan gadoyga o‘xshardim: ustimda yirtiq kiyim, cho‘ntagimda oxirgi shillinglarim qolgan, hamrohim esa davlatga xoin deb hukm qilingan odam edi. Mening boshimga ham butun mamlakat shov-shuv qilayotgan jinoyat uchun mukofot belgilangan edi. Bugun esa men qonuniy merosimni qo‘lga kiritdim, yer-mulk egasiga aylandim, yonimda bank xizmatchisi oltinlarimni ko‘tarib bormoqda, cho‘ntagim tavsiyanomalar bilan to‘la, ta'bir joiz bo‘lsa, omad endi butunlay mening tomonimda edi”.*

woman fits in a man's mind"[42]. Bu kutilmagan ("sudden") tuyg'u neoromantik poetikaga xos "hodisa turtkisi"ni yuzaga keltiradi. Keyingi bobda esa romantik hissiyot qahramonni harakatga undovchi kuchga aylanadi: *"Of a sudden her face appeared in my memory... weakness came in my bosom and strength into my legs"*[43].

Demak, muhabbat ichki tayanch vazifasini bajaradi – qahramon chekinmay, oldinga intiladi.

Romanda sevgi ko'r-ko'rona ergashtirmaydi, balki vijdon va mas'uliyat bilan uyg'unlashadi. Jeyms More atrofidagi chigal vaziyatda David ikki o'rtada qoladi: *"There were times when I was tempted to lend him a round sum... but this would have been to see the last of Catriona as well"*[44]. Qahramon Katrionani yo'qotish qo'rquvi (romantik hissiyot) va vijdonga zidlik (axloqiy mezon) o'rtasida kurashadi. Stivenson bu ziddiyatni didaktika emas, ixcham psixologizm orqali beradi.

"Catriona"da tarixiy tasvirlar uch qatlamda qurilgan: empirik qatlam – XVIII asr Shotlandiyadagi aniq tarixiy vaziyat va sud jarayonlari; ijtimoiy qatlam – tabaqalanish va axloqiy tanazzul; psixologik qatlam – qahramon ichki monologlari, qo'rquv, g'urur va muhabbat o'rtasidagi kurash. Uch qatlam o'zaro uzviylikda rivojlanib, tarixni faqat faktlar majmuyi sifatida emas, inson ongida kechuvchi murakkab jarayon sifatida ochib beradi.

Uchinchi bobning uchinchi fasli ***"Stivenson romanlarida vijdon, halollik va ma'nan yuksalish motivlari"*** deb nomlangan bo'lib, ushbu faslda Stivenson romanlarida keng qo'llanilgan vijdon, halollik va ma'nan yuksalish motivlari tahlilga tortiladi. Stivenson romanlarida vijdon va halollik "aytilgan g'oya" emas, bajariladigan majburiyat sifatida namoyon bo'ladi. Qahramonlar tarixiy bosim, xavf va ta'qib sharoitida ham vijdoni tufayli chekinmaydi, moddiy manfaat uchun yo'lini o'zgartirmaydi. "Catriona"da vijdon qarzdorlik hissi orqali ko'rinadi: *"...I resolved to buy her a Sunday gown... for I had a great debt to her, and it would be an ease to my conscience. This done, I considered I had now paid all my moral debts and might embark on my perilous business with a clearer countenance"*[45]. David xavfli ishga kirishdan oldin o'zini axloqiy jihatdan "tozalab" oladi – vijdon tinchligi unga jasorat emas, ichki xotirjamlik beradi.

"Kidnapped"da halollik do'stga sodiqlikda namoyon bo'ladi: *"...I do not think desertion is the part of an honest man… I'll stand by you"*[46]. Qahramon o'z jonini qutqazishdan avval "men qanday odam bo'laman?" savolini beradi. "Halol

---

[42] Stevenson R.L. Catriona: A Sequel to "Kidnapped"; Being Memoirs of the Further Adventures of David Balfour at Home and Abroad. Colonial edition. – London; Paris; Melbourne: Cassell and Company Limited, 1891. – P. 6

[43] Stevenson R.L. Catriona: A Sequel to "Kidnapped"; Being Memoirs of the Further Adventures of David Balfour at Home and Abroad. Colonial edition. – London; Paris; Melbourne: Cassell and Company Limited, 1891. – P. 1B. 70-71.

[44] Stevenson R.L. Catriona: A Sequel to "Kidnapped"; Being Memoirs of the Further Adventures of David Balfour at Home and Abroad. Colonial edition. – London; Paris; Melbourne: Cassell and Company Limited, 1891. – Part II, Chapter XXVI ("The Threesome"). – P. 317. Ingliz tilidan muallif tarjimasi: *"Ba'zan unga anchagina pul berib yordam qo'lini cho'zish istagi paydo bo'lardi. Ammo bunday yo'l tutish Katrionani butunlay yo'qotishimga sabab bo'lishini yaxshi bilardim".*

[45] Stevenson R.L. Catriona: A Sequel to "Kidnapped"; Being Memoirs of the Further Adventures of David Balfour at Home and Abroad. Colonial ed. – London; Paris; Melbourne: Cassell and Company Limited, 1891. – P. 69-72.

[46] Stevenson R.L. Kidnapped. Project Gutenberg eBook (plain text). Ch. XXIII

odam do‘stini tashlab ketmaydi” – bu mezon uning keyingi barcha harakatlarini belgilaydi.

“The Black Arrow” da sha’n va vijdon qasam orqali sinovdan o‘tadi: *“Give me my honesty”*[47]. Richard muammoni hiyla bilan hal qilmaydi – u axloqiy jihatdan “pokiza” yo‘lni izlaydi, chunki halolliksiz harakatlarining qiymati yo‘q.

Ma’nan yuksalish motivi.

Stivenson qahramonlari asar boshida sodda va tajribasiz, voqealar rivoji mobaynida esa murakkab sinovlar orqali ma’nan yuksaladi. Bu yuksalish uch belgi orqali ko‘rinadi: chekinish istagi bo‘lsa-da mas’uliyatdan qochmaslik; hissiyotni axloqiy tayanch bilan bog‘lash; o‘z pozitsiyasiga sodiqlik.

Ma’nan yuksalish ko‘pincha axloqiy tanlovlar bilan uzviylikda namoyon bo‘ladi. Yaxshilik va yomonlik, vijdon va manfaat, sadoqat va xiyonat o‘rtasida qahramonlar tanlov qilishga majbur bo‘lishadi. Alan Breck Styuart obrazi orqali sadoqat, do‘stlik ulug‘langan. Alan ba’zan qonundan tashqariga chiqsa-da, uning axloqiy fazilatlari kuchli bo‘lib, uning ma’naviy jihatdan yuksak shaxs ekani ko‘rsatiladi.

Ma’nan yuksalish insonning o‘z “men”i bilan “ichki kurashi” orqali tasvirlanadi. Inson tabiatidagi ikki qarama-qarshi kuch ezgulik va yovuzlikning qahramonlar hayotiga ta’siri ifodalanadi. Bu yerda ma’nan yuksalish oddiy rivojlanish emas, balki insonning o‘z nafsi ustidan hukmronlik qila olishi yoki aksincha, unga taslim bo‘lishi orqali namoyon bo‘ladi.

Tarixiy va ijtimoiy sharoit ham qahramonning ma’naviy shakllanishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, “Catriona” romanida siyosiy ziddiyatlar, ijtimoiy beqarorlik va adolatsizlik qahramonlarning ichki olamini qat’iylashtiradi. Ma’nan yuksalish shaxsiy jarayon emas, jamiyat bilan uzviy bog‘liq hodisa hisoblanadi.

“Catriona”da yuksalish chekinish qo‘rquvini yengishda ko‘rinadi*: “If I could have done so with any remains of self-esteem, I would now have fled… But I decided I was ventured out beyond the possibility of a retreat… I would stand by the word spoken*”[48]. David o‘zini ideal qahramon sifatida ko‘rsatmaydi – ichki ikkilanishni tan oladi, lekin aynan shu tan olishdan keyin “aytilgan so‘z”ni qat’iy mezonga aylantiradi. “Weakness came in my bosom and strength into my legs” antitezasi ichki holatning tashqi harakatga aylanishini mahorat bilan ifodalaydi.

“Kidnapped” da yuksalish vijdon orqali kechadi: “My conscience smote me hard and fast… I have never been skilled in lying”. Xijolat zaiflik emas – o‘zini tuzatishga ishoradir.

“The Black Arrow”da Richard Shelton uchun “to‘g‘ri yo‘l” sha’n tushunchasida jamlanadi: “I cannot hear with honour”. Bu ichki axloqiy chegara urush sharoitida ham saqlanadi – aynan shu mezon asarni sarguzashtdan axloqiy dramaga aylantiradi.

Stivenson uchun ma’nan yuksalish tayyor kamolot emas – sinov → xato → anglash → qaror → o‘zgarish zanjiri orqali bosqichma-bosqich shakllanadi.

---

[47] Stevenson R.L. The Black Arrow: A Tale of the Two Roses. Project Gutenberg eBook (plain text).

[48] Stevenson R.L. Catriona: A Sequel to “Kidnapped”; Being Memoirs of the Further Adventures of David Balfour at Home and Abroad. Colonial edition. – London; Paris; Melbourne: Cassell and Company Limited, 1891. Chapter VII: “I Make a Fault in Honour”. – P. 70-71.

“Catriona”da vijdon ichki poklanish va mas’uliyat shaklida, “Kidnapped”da halollik do‘stga sadoqat sifatida, “The Black Arrow”da esa sha’n va vafodorlik tarzida namoyon bo‘ladi. Shunday qilib, vijdon, halollik va ma’nan yuksalish motivlari Stivenson neoromantik poetikasining asosini tashkil etib, qahramonning ichki dunyosi tarixiy voqelik fonida chuqur va ishonarli tarzda ochib beriladi.

XULOSA

1. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida shakllangan neoromantik adabiyot romantizm an’analarini davom ettirgan adabiy yo‘nalish hisoblanadi. Unda shaxs erki, ichki kechinmalar va sarguzasht yetakchi o‘rin egallaydi. Qahramon ko‘pincha jamiyat bilan ziddiyatga kirishgan, o‘z g‘oyalarini himoya qila olgan shaxs sifatida tasvirlanadi. Bu yo‘nalish realizmning ijtimoiylikka moyilligiga qarshi muvozanat sifatida yuzaga kelgani bois unda badiiy tasvir erkinligi ustuvorlik kasb etadi. Tabiat, tarix va ekzotik makonlar tasviri kitobxonni betakror hamda xavf-xatarga to‘la olamga olib kiradi.

2. Neoromantik an’analar adabiyotda qahramonlik, sarguzasht motivlarini yangicha talqinda davom ettiradi. Yozuvchilar tarixiy voqealarni badiiy jihatdan qayta talqin qilishga intiladilar. Qahramonlarning iztiroblari va ruhiyatidagi tadrijiylik markaziy o‘ringa chiqadi. Neoromantizmda an’anaviy romantik g‘oyalar zamonaviy muammolar bilan uyg‘unlashtiriladi. Bu esa asarlarga falsafiylik va psixologik teranlik baxsh etadi. Neoromantik adabiy an’analar badiiy tafakkur rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Robert Luis Stivenson romanlarida tarixiylik va sarguzasht unsurlarining uyg‘unligi neoromantik adabiyotning asosiy xususiyati hisoblanadi. Yozuvchi tarixiy voqelikni oddiy badiiy manzara sifatida emas, balki syujetni shakllantiruvchi vosita sifatida talqin qiladi. Voqealar rivoji tarix bilan uzviy bog‘lanib, ichki mantiqiy izchillikni ta’minlasa, sarguzasht esa tarixiylikni dramatizm bilan boyitadi. Bu ikki unsur mushtarakligi asarning badiiy ta’sirchanligini oshiradi. Kitobxon tarixiy haqiqatni badiiy to‘qima uzviyligi his etadi. Stivenson tarixiy-sarguzasht romanning mukammal namunasini yarata oldi.

4. Stivenson romanlarida zamon va makon aniq beriladi, bu esa ishonarlilikni ta’minlaydi. Har bir badiiy voqea muayyan ijtimoiy-siyosiy jarayon bilan chambarchas bog‘liqlikda tasvirlanadi. Qahramonlarning harakat-holatlari ham aynan shu tarixiy sharoit bilan belgilanadi. Bu esa kitobxonda ishonch hissini kuchaytiradi. Tarixiy zamon va makon birligi asarning tarkibiy yaxlitligini ta’minlaydi.

5. Stivenson yaratgan qahramonlar xarakteri ichki va tashqi omillar ta’sirida shakllanadi. Yozuvchi ularni dinamik rivojlanishda tasvirlaydi. Bu jarayon aksariyat hollarda sarguzasht voqealar bilan parallel kechadi. Qahramonlar ruhiyatining tadrijiy taraqqiyoti syujetning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi. Bu psixologik neoromantizm xususiyatini kuchaytirib, obrazlar jonli va ishonarli gavdalantiriladi. Eskapizm g‘oyasi qahramonlarning kundalik hayot

tashvishlaridan qochib, sarguzashtga intilishi orqali namoyon bo‘ladi. Muallif insonning erkinlikka ehtiyojini mahorat bilan ifodalaydi.

6. Siyosiy kurash, ijtimoiy ziddiyatlarni ifodalagan ijtimoiy konflikt hamda vijdon, qo‘rquv, shubha orqali ichki ziddiyat qahramon ruhiyatini ochib beradi. Ko‘p qatlamli konflikt o‘zaro uzviylashib, dramatik keskinlikni oshiradi hamda asarning g‘oyaviy yukini kuchaytiradi. Bu esa o‘quvchini mulohazaga undaydi. Sarguzasht syujeti qiziqarli voqealar ketma-ketligi emas, balki axloqiy-falsafiy muammolarni aks ettiradi. Har bir sarguzasht epizodi sinov motivini yuzaga keltiradi. Kvest syujeti qahramonning muayyan maqsad, ya’ni xazina, haqiqat yoki o‘zligini topish yo‘lida sinovlardan o‘tishi orqali quriladi. Sarguzasht ichki takomil bilan uyg‘unlashib, axloqiy va ruhiy kamolotni ochib beradi.

7. Ma’naviy yuksalish motivi Stivenson romanlarining asosini tashkil etadi. Qahramonlar turli sinovlardan o‘tish jarayonida ichki kamolot sari qadam bosadilar. Bu o‘zgarish ularning qarorlarida namoyon bo‘ladi. Bu esa asarning tarbiyaviy ahamiyatini oshirib, adib inson kamoloti masalasiga chuqur yondashganini ko‘rsatadi.

8. Stivenson romanlarida voqealar birinchi shaxs nomidan hikoya qilinadi, bu usul qahramonning ichki olamidagi evrilishlarni chuqur ochishga xizmat qiladi va kitobxonni voqealar markaziga olib kiradi. Natijada o‘quvchi qahramon bilan yonma-yon harakatlanadi, uni his qiladi va birgalikda fikrlaydi. Asar tili sodda, ravon bo‘lib, keng auditoriyaga mo‘ljallangan. Yozuvchi badiiy tasvir vositalaridan samarali foydalanadi. Bu esa asarning ta’sirchanligini oshirib, uslub va mazmun uyg‘unligini yuzaga keltiradi.

9. Stivenson nasrida neoromantizm an’analari sarguzasht va romantik ruhni zamonaviy psixologik tahlil bilan uyg‘unlashtirishda namoyon bo‘ladi. Qahramonlar ichki ziddiyatlar, murakkab tanlovlar va shaxsiy kamolot jarayonida tasvirlanadi. Bu esa neoromantizmga xos xususiyatlarni markazga olib chiqadi. Adib tarixiy voqealarni ideallashtirmasdan, romantik an’analarni realizm unsurlari bilan boyitadi. Tabiat, erkinlik va sarguzasht motivlari yetakchi o‘rin egallagani bois adib romantizm hamda realizm oralig‘ida yangi estetik yo‘nalishni shakllantirishga muvaffaq bo‘ldi.

10. Stivenson romanlarida ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar – erkinlik, adolat, halollik, sadoqat kabi tushunchalar asosiy o‘rin egallaydi. Bu qadriyatlar umuminsoniy ahamiyat kasb etib, asarning g‘oyaviy ta’sirini kuchaytiradi. Qahramonlar ichki qarama-qarshiliklar girdobidagi jonli obrazlar sifatida gavdalanadi. Bu usul obraz tabiatining ko‘p qirrali ekanligiga dalolat qiladi. Neoromantizm an’analari yozuvchining til va uslubida ham yaqqol namoyon bo‘lib, jahon adabiyotshunosligida Stivenson ijodi neoromantik adabiyotning betakror namunalaridan biri sifatida baholanadi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2026.31.01.Fil.45.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УЗБЕКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ МИРОВЫХ ЯЗЫКОВ

УЗБЕКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ МИРОВЫХ ЯЗЫКОВ

СОХИБОВА УГИЛОЙ НУРАЛИЕВНА

ТВОРЧЕСТВО РОБЕРТА ЛУИС А СТИВЕНСОНА В КОНТЕКСТЕ НЕОРОМАНТИЗМА В АНГЛИЙСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

10.00.04 – Языки и литература народов Европы, Америки и Австралии

Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси АВТОРЕФЕРАТИ

ТАШКЕНТ – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Академии наук под № B2024.4.PhD/Fil5271.

Диссертация выполнена в Узбекском государственном университете мировых языков.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.uzswlu.uz) и на Информационно-образовательном портале “Ziyonet” (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Адилова Шахноза Рахимовна** доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент.
Официальные оппоненты:	**Умарова Махлиё Юнусовна** доктор филологических наук, профессор.
	Насриддинов Дилшод Азамкулович доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент.
Ведущая организация:	**Национальный педагогический университет Узбекистана имени Низами Гянджеви**

Защита диссертации состоится “___” _____ 2026 года в ____часов на заседании Научного совета DSc.03/2026.31.01.Fil.45.01 при Узбекском государственном университете мировых языков. (Адрес: 100138, город Ташкент, улица Малая кольцевая дорога, Г9-А, дом 21. Тел: (99871) 230-12-91; факс: (99871) 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Узбекского государственного университета мировых языков (зарегистрирована по номеру ___. Адрес: 100138, город Ташкент, Учтепинский район, ул. Малая кольцевая дорога, Г9-А, дом 21. Тел.: (99871) 230-12-91; факс (99871) 230-12-92.

Автореферат диссертации распространен “_____” _____2026 года

(Протокол реестра рассылки № _____ от “_____” _____ 2026 года)

А. А. Насиров
Председатель научного совета по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

Х.Б.Самигова
Учёный секретарь научного совета по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

Д. М. Тешабаева
Председатель научного семинара при научном совете по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ(аннотация диссертации доктора философии(PhD)

Актуальность и необходимость темы диссертации. Во второй половине XIX – начале XX века в мировой литературе под влиянием ряда литературных течений неоромантизм сформировался как своеобразное эстетическое направление. Данное течение, являясь продолжением романтизма, переосмысливает мотивы приключения, духовного возвышения, идеализма и героизма в новых социально-философских условиях. В английской литературе неоромантизм возник как альтернативное направление по отношению к традиционному реализму и натурализму, сосредоточившись на изображении внутреннего мира человека, его эстетических идеалов и устремлений. Как и в системе основных эстетических принципов данного течения, в творчестве Роберта Луиса Стивенсона в качестве лейтмотива выступает не столько изображение реальной действительности, сколько раскрытие глубинных, внутренних слоёв человеческой души. Неоромантическая картина мира, выраженная в его романах «Остров сокровищ» (Treasure Island), «Похищенный» (Kidnapped) и «Катриона» (Catriona), а также такие мотивы, как историческое сознание, приключение и героизм, способствовали формированию особой литературной школы в западной литературе.

В современном мировом литературоведении всё более возрастает необходимость изучения истории и научно-теоретических основ неоромантизма, в частности, анализа его художественной специфики на примере творчества Стивенсона. Неоромантизм органично соединил художественное изображение внутреннего мира человека с экспериментальными формами модернизма. Внутренний и внешний мир человека получил более глубокое осмысление посредством символизма. Данное течение выступило своеобразным мостом между романтизмом XIX века и эстетическими направлениями начала XX века. Изображение чувств и психологических процессов, обращение к таинственным и фантастическим мотивам, синтез поэзии и музыки, а также адаптация классических романтических мотивов к современному контексту являются характерными особенностями неоромантизма.

В узбекской литературе косвенное и типологическое влияние творчества Роберта Луиса Стивенсона проявляется преимущественно через литературные традиции и неоромантическую стилистику. Идеи мужества, честности и духовного совершенствования личности через испытания, а также мастерство создания художественных образов, характерные для произведений Стивенсона, оказали влияние на формирование сюжетной структуры и типа неоромантического героя в узбекской литературе. В Послании Президента Республики Узбекистан Олий Мажлису и народу Узбекистана особое внимание уделяется вопросам приобщения молодёжи к чтению и её духовно-нравственного воспитания. В частности, подчёркивается: «Сегодня сама история, сама жизнь возлагают на нас великую ответственность. Наша Родина становится страной свободных и независимых людей, мыслящих самостоятельно и живущих на основе новых

политико-правовых, социально-экономических и духовных отношений[49]». В связи с этим изучение литературных направлений, активно исследуемых в западном литературоведении, в частности, процессов формирования неоромантизма в английской литературе, его эстетических принципов и философской сущности, особенно их отражения в творчестве Роберта Луиса Стивенсона, требует применения современных научных подходов к анализу проблем художественного мышления в условиях технократизирующегося мира.

Данное диссертационное исследование в определённой степени способствует реализации задач, обозначенных в нормативно-правовых актах Республики Узбекистан, в том числе Указах Президента Республики Узбекистан № ПФ-5847 от 8 октября 2019 года «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», № ПФ-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», № ПФ-158 от 11 сентября 2023 года «Стратегия “Узбекистан – 2030”», а также в Постановлениях № ПҚ-3775 от 5 июня 2018 года и № ПҚ-5117 от 19 мая 2021 года, направленных на повышение качества образования и развитие изучения иностранных языков, и Постановлении Кабинета Министров № 376 от 18 мая 2018 года, касающемся совершенствования системы перевода и издания лучших образцов мировой литературы.

Соответствие диссертационного исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики. Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан I – «Формирование системы инновационных идей и путей их реализации в условиях развития информационного общества и демократического государства в социально-правовой, экономической, культурной и духовно-просветительской сферах».

Степень изученности проблемы. Проблемы английского неоромантизма и творчества Роберта Луиса Стивенсона в мировом литературоведении исследованы на основе различных теоретических и методологических подходов. Фундаментальные труды западных учёных, таких как И. Берлин, Г. Брандес, Т. Иглтон, Р. Уэллек, А. Уоррен, Н. Фрай, Л. Триллинг, посвящённые романтизму и неоромантизму, составляют теоретическую основу данного направления[50]. В их работах обоснованы художественно-философская сущность романтического и неоромантического

[49] Мирзиёев Ш. М. Послание Президента Республики Узбекистан Ш. М. Мирзиёева Олий Мажлису и народу Узбекистана от 26 декабря 2025 года [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://president.uz/oz/lists/view/8834

[50] Berlin I. The Roots of Romanticism. – Princeton: Princeton University Press, 1999. – P. 98–104.; Brandes G. Main Currents in Nineteenth Century Literature. Vol. VI. – London: William Heinemann, 1906. – P. 210–214.; Eagleton T. Literary Theory: An Introduction. – Oxford: Basil Blackwell, 1983. – P. 20–24, 76–79.; Wellek R.; Warren A.; Theory of Literature. – New York: Harcourt, Brace & World, 1949. – P. 139–142.; Frye N. Anatomy of Criticism. – Princeton: Princeton University Press, 1957. – P. 136–138, 187.; Trilling L. The Liberal Imagination: Essays on Literature and Society. – New York: Viking Press, 1950. – P. 121–123.

мышления, его историческая эволюция и преемственность, а также трансформации в литературном процессе.

Исследователи И. Белл, К. Харман, Л. Драйден, Дж. Колдер, У. Грей, Р. Хантер, С. Хенстра, Дж. Рид, Д. Райзер осуществили глубокий анализ приключенческих и исторических произведений Роберта Луиса Стивенсона с биографической, психологической, структурной и психоаналитической точек зрения[51]. Романы «Остров сокровищ», «Похищенный», «Катриона», «Хозяин Баллантрэ» рассматриваются как новый этап развития приключенческой литературы, где мотивы героизма и исторического пространства выступают в качестве ведущих художественных факторов[52].

В русском литературоведении проблемы неоромантизма получили научное освещение в ряде исследований. В частности, В. М. Толмачёв рассматривает неоромантизм как художественно-эстетическую категорию, развивавшуюся на рубеже XIX–XX веков, и анализирует философские, поэтические и типологические особенности неоромантического мышления на основе системного подхода[53]. Н. Т. Пахсарьян трактует неоромантизм как важный этап художественного сознания XX века, научно обосновывая его генетические и типологические связи с романтизмом, реализмом и модернизмом[54]. В. А. Луков раскрывает преемственность романтических и неоромантических традиций[55]. Е. Я. Фесенко интерпретирует неоромантизм как культурно-философское явление XX века, комплексно анализируя его эстетическую систему и культурные функции[56].

Несмотря на то, что данные исследования направлены на освещение общих теоретических проблем неоромантизма, в них недостаточно разработаны вопросы концепции нравственного героя в творчестве Роберта Луиса Стивенсона, а также проблемы совести, честности и личностного выбора как самостоятельного объекта специального и системного анализа. В частности, философско-эстетическая сущность модели нравственного героя в неоромантическом контексте в романах «Остров сокровищ», «Похищенный», «Катриона» не получила комплексного диссертационного освещения. В этом

[51]Bell I. Dreams of Exile: Robert Louis Stevenson – A Biography. – London: HarperCollins, 1992. – P. 44–48, 112–116.; Harman C. Robert Louis Stevenson: A Biography. – London: HarperCollins, 2005. – P. 203–205.; Dryden, L. The Modern Gothic and Literary Doubles: Stevenson, Wilde and Wells. Palgrave Macmillan, 2003. – P. 45–47, 111–113.; Calder J. Robert Louis Stevenson: A Critical Study. – Edinburgh: Canongate Classics, 1992. – P. 86–89.; Gray W. Romantic Legacy in Modern Literature. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2010. – P. 87–90.; Reid J. Robert Louis Stevenson, Science and the Fin de Siècle. – New York: Palgrave Macmillan, 2006. – P. 91–94.; Riser D. V. What's Long about Long John Silver: A normative Masculinities and Histories in Robert Louis Stevenson's "Treasure Island". – Morgantown: West Virginia University, 2023.

